

The Importance Of Organizing Library Clubs In School Libraries

Khasanova Gulnora Chorshanbiyevna,

Kashkadarya Regional Pedagogical Center of Excellence, Senior Lecturer, Department of "Methodology of Teaching Applied and Social Sciences"

Annotation. This article discusses the pedagogical and methodological foundations of organizing reading clubs in school libraries. The importance of reading clubs in developing students' reading culture, forming independent thinking, communication and analytical skills is analyzed. Also, practical recommendations for planning, organizing and effectively conducting club activities and methods for using interactive methods are described.

Keywords: reading club, school library, reading culture, interactive methods, book discussion, students, information literacy, spiritual and educational education.

Maktab Kutubxonalarida Kitobxonlik Klublari Tashkil Etishning Ahamiyati

Xasanova Gulnora Chorshanbiyevna,

Qashqadaryo viloyat pedagogik mahorat markazi, "Amaliy va ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab kutubxonalarida kitobxonlik klublarini tashkil etishning pedagogik va metodik asoslari yoritilgan. Kitobxonlik klublarining o'quvchilar mutolaa madaniyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muloqot va tahliliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, klub faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va samarali olib borish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda interaktiv metodlardan foydalanish usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik klubi, maktab kutubxonasi, mutolaa madaniyati, interaktiv metodlar, kitob muhokamasi, o'quvchilar, axborot savodxonligi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya.

Важность Организации Читальных Клубов В Школьных Библиотеках

Хасанова Гульнора Чоршанбиевна,

Кашкадаринский областной педагогический центр передового опыта, старший преподаватель кафедры «Методология преподавания прикладных и социальных наук»

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические и методические основы организации читательских клубов в школьных библиотеках. Анализируется важность читательских клубов в развитии у учащихся культуры чтения, формировании самостоятельного мышления, коммуникативных и аналитических навыков. Также описываются практические рекомендации по планированию, организации и эффективному проведению клубной деятельности и методы использования интерактивных методов.

Ключевые слова: читательский клуб, школьная библиотека, культура чтения, интерактивные методы, обсуждение книг, учащиеся, информационная грамотность, духовно-воспитательное образование.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning xalqimizni kitobxon millatga aylantirishga oid ezgu sa'y-harakatlari tobora yangicha ma'no va mazmun bilan boyib bormoqda. "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish



chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-9-son, 15.01.2026-y.) qabul qilindi. Qarorni qabul qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad 2026 – 2030-yillarda aholining kitobxonlik darajasi (1 odam o'qiydigan kitob soni)ni yiliga o'rtacha 10 ta kitobga yetkazish etib belgilandi.

Aytish kerakki, xalqimiz azaldan kitobxon, adabiyotsevar xalq. Mamlakatimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida hamyurtlarimiz, ayniqsa, yoshlarning yaxshi kitobga bo'lgan qiziqishini tobora kuchaytirish, milliy adabiyotimiz, ijod ahliga e'tiborini yanada orttirish, kutubxonalar faoliyatini davr ruhiga hamohang tarzda yo'lga qo'yish bo'yicha jiddiy qadamlar qo'yildi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanib borar ekan, o'quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, bilim olish uchun keng imkoniyat yaratish dolzarb masalaga aylangan. Kitob insonning ma'naviy dunyosini boyituvchi, tafakkurini rivojlantiruvchi va hayotiy tajribasini kengaytiruvchi muhim vositadir. Shu nuqtai nazardan, maktab kutubxonalari o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim markazi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Kutubxonalarda kitobxonlik klublarini tashkil etish kitob mutolaasini targ'ib qilish va jamiyatda ma'naviy muhitni yaxshilashning samarali usulidir. Maktab kutubxonalarida kitobxonlik klublarini tashkil etish o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mutolaa jarayonini tizimli tashkil etish hamda kitob asosida fikr almashish muhitini yaratishda samarali vosita hisoblanadi.

Kitobxonlik klubining maqsadi va vazifalari. Kitobxonlik klubi — bu kitob mutolaasini targ'ib qilish, o'quvchilarni kitoblar haqida fikr almashishga jalb etish va kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ixtiyoriy birlashmadir. Klubning asosiy maqsadi:

- o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;
- mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish;
- tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash;
- muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish.

Asosiy vazifalari: muntazam kitob muhokamalarini tashkil etish; yangi adabiyotlarni targ'ib qilish; kitobxonlik tanlovlari va intellektual o'yinlar o'tkazish; adiblar hayoti va ijodini o'rganish; o'quvchilarning mustaqil mutolaa faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Kitobxonlik klubini tashkil etish metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:


1-bosqich. Tashkiliy ishlar. Klub tashkil etish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi: klub nomini tanlash, nizom ishlab chiqish, a'zolari jalb etish, ish rejasini tuzish, uchrashuvlar jadvalini belgilash. Klub nomlari sifatida:

- “Yosh kitobxonlar”;
- “Mutolaa olami”;
- “Kitobsevarlar”;
- “Jadidlar izdoshlari”;
- “Bilimdonlar klubi” kabi nomlardan foydalanish mumkin.

2-bosqich. Kitoblarni tanlash. Klub faoliyatida o'quvchilarning yosh va qiziqish xususiyatlariga mos adabiyotlarni tanlash muhim hisoblanadi. Tanlash mezonlari: badiiy qiymati, tarbiyaviy ahamiyati, yoshga mosligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishi, zamonaviy va klassik adabiyotlarning uyg'unligi.

3-bosqich. Mutolaa jarayonini tashkil etish. Har oy yoki chorak davomida muayyan kitob mutolaa uchun tavsiya etiladi. Klub a'zolari belgilangan muddat davomida asarni o'qib chiqadilar. Mutolaa davomida: mutolaa kundaligi yuritiladi, qiziqarli fikr va iqtiboslar yozib boriladi, qahramonlar xarakteri tahlil qilinadi, asar yuzasidan savollar tayyorlanadi.

Kitobxonlik klubida qo'llaniladigan interaktiv metodlar:



Kitob muhokamasi. Eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Muhokama savollari:

Asarning asosiy g'oyasi nimadan iborat?

Sizga qaysi qahramon yoqdi?

Qahramon o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?

Asardan qanday xulosa chiqardingiz?

Bu usul tanqidiy fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiradi.

“Bir kitob – bir fikr” metodi. Har bir o'quvchi o'qigan kitobi haqida qisqa taqdimot qiladi va o'z fikrlarini bayon etadi. Natijada omma oldida nutq so'zlash malakasi rivojlanadi, kitoblar haqida tavsiyalar almashiladi.

Debat metodi. Asar yoki qahramonlarga oid bahsli mavzular tanlanadi. Masalan: “Asar qahramonining qarori to'g'rimi?”, “Texnologiyalar kitob o'rnini bosa oladimi?”. Debatlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar. O'quvchilar asar qahramonlari obrazlarini ijro etadilar. Ushbu metod: ijodkorlikni rivojlantiradi, asarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kitob kvestlari. Kutubxona hududida kitoblar bilan bog'liq topshiriqlar asosida qidiruv o'yinlari tashkil etiladi. Natijada: o'quvchilar kutubxona fondini yaxshi o'rganadi, axborotni izlash ko'nikmalari shakllanadi.

Kitobxonlik klubi faoliyatining tahminiy rejasi:

Oy	Tadbir mavzusi	Shakli
Sentabr	Klub ochilish marosimi	Taqdimot
Oktabr	Sevimli kitobim	Davra suhbat
Noyabr	Kitobxonlar viktorinasi	Intellektual o'yin
Dekabr	Adiblar ijodi kechasi	Adabiy-badiiy tadbir
Yanvar	Bir kitob – bir muhokama	Kitob tahlili
Fevral	Zakovat musobaqasi	Intellektual o'yin
Mart	She'riyat oqshomi	Adabiy kecha
April	Kitob kvesti	Interaktiv o'yin
May	Yilning eng faol kitobxon	Taqdirlash

Kitobxonlik klublarining samaradorligi. Kitobxonlik klublari faoliyati natijasida: o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishi ortadi; mutolaa madaniyati rivojlanadi; lug'at boyligi kengayadi; tanqidiy va ijodiy fikrlash shakllanadi; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga hurmat kuchayadi; jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, klub faoliyati kutubxonaning ta'lim-tarbiyaviy jarayondagi rolini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa shuki, maktab kutubxonalarida kitobxonlik klublarini tashkil etish o'quvchilarning mutolaa madaniyatini rivojlantirishning samarali shakllaridan biridir. Klub faoliyati kitobxonlikni targ'ib qilish, o'quvchilarning bilim va dunyoqarashini kengaytirish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Zamonaviy interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan kitobxonlik klublari kutubxona faoliyatining jozibadorligini oshiradi va yoshlarning kitobga bo'lgan mehrini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyeva Z. Kutubxonashunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
2. Mahmudov M.X. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 2023.
3. Qosimova M. Zamonaviy kutubxona faoliyatida innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2022.
4. IFLA Guidelines for Library Services. – Hague: IFLA, 2023. UNESCO. School Library Manifesto. – Paris, 2021.
5. ALA. Library Programming and Community Engagement. – Chicago, 2022.

